

FUQAROLIK POZITSIYASINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MUAMMOLARI

*Sulaymonov Maxmudjon Shuxratbekovich,
Andijon davlat pedagogika instituti erkin izlanuvchisi*

THEORETICAL-METHODOLOGICAL PROBLEMS OF THE STUDY OF CITIZENSHIP POSITION

*Sulaymonov Maxmudjon Shuxratbekovich,
Free researcher of Andijan State Pedagogical Institute*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ

*Сулайманов Махмуджон Шухратбекович, независимый
научный исследователь Андийжанского государственного
педагогического института*



<https://orcid.org/0009-0006-5782-044X>

e-mail:
[maxmudjon.sulaymonov@
gmail.com](mailto:maxmudjon.sulaymonov@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola fuqarolik pozitsiyasini o'rganishning nazariy-metodologik muammolarini hal etishda nimalarga e'tibor berish, yoshlarimiz ongini jamiyatimiz farovonligi yo'lida ezgu maqsadga yo'naltirish va bunda nimalar to'siq bo'layotganligini aniqlab, ushbu muammolarni yechish masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlik, barqaror iqtisodiyot, milliy adabiyot, globallashuv, mahalliychilik, o'zbek tili.

Abstract: This article highlights the views of ancient and medieval philosophers and scholars on the position of citizenship. The importance of the position of citizenship in the development of statehood is revealed based on the opinions of thinkers and other conceptual ideas.

Key words: citizen, state, development, alloma, civil position, antiquity, the Middle Ages.

Аннотация: В данной статье освещены взгляды античных и средневековых философов и ученых гражданской позиции. Значение позиции гражданственности в развитии государственности раскрывается на основе мнений мыслителей и других концептуальных идей.

Ключевые слова: Молодёжь, стабильная экономика, национальная литература, глобализация, местничество, узбекский язык.

KIRISH. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasi davlatimiz rahbari tomonidan muntazam ilgari surib kelinayotgan vazifalar qatorida turadi. Chunki, davlat siyosati va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati fuqarolik pozitsiyasining shakllangani bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigida: "...yosh avlodimizning

grajdanlik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, yoshlar bilan doimiy muloqot olib borish, ularning bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi, jamiyatning munosib a'zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini

yaxshilash vazifasi barchamizning kundalik faoliyatimiz mezoniga aylanib bormoqda”¹, deya ta’kidlab o’tgan edi. Fuqarolik pozitsiyasini insonning mustaqil fikrlashga, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashga bog’lash orqali jamiyat a’zosining ijtimoiy missiyasini aniq-ravshan belgilab qo’yishga intilishni ko’rish mumkin. Bu fuqarolik pozitsiyasiga davlat siyosati nuqtayi nazaridan yondashuv bo’lib, hokimiyat fuqarolik pozitsiyani shakllantirish uchun ularga ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ta’minlash birlamchi deb hisoblashini anglatadi. Umumiy olib qaraganda ham fuqarolik masalalari bu – barqaror iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlar bilan uzviy bog’liq jarayondir. Ya’ni, doimiy ish o’rniga ega, muntazam daromadi bor fuqarolar davlat siyosatining u yoki bu masalalariga qiziqish bildirishi ehtimoli yuqori. Qashshoq va kambag’allarining asosiy tashvishi esa kundalik tirikchilik ishlaridir. Ularni davlat va jamiyatning muhim masalalari qiziqtirmasligi tabiiy hol bo’lib, jamiyatning bunday a’zolari uchun ekzistensial savollar nisbatan boshqachadir. Jamiyatning eng badavlat qatlami esa davlat siyosatini o’z yo’rig’iga burishga urinadi va bu oligarxiya deb ataladigan salbiy holatni keltirib chiqaradi. Bunday faollik esa, detsruktiv xususiyatga ega bo’lib, davlat va jamiyatning muqarrar inqiroziga sabab bo’ladigan omil hisoblanadi². Shunday ekan, jamiyat a’zolarining ma’lum bir mashg’ulotga ega bo’lishi, iqtisodiy imkoniyatlarining mavjudligi ularning ijtimoiy-siyosiy faolligining garovidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Fuqarolik pozitsiyasi bo’yicha amalga oshirilgan qator tadqiqotlarda bu atamaning turli tomonlari yoritib berilgan. Rus olimlaridan K.I.Maslov inson ongli ravishda yuzaga keladigan fuqarolik xulq-atvori sifatida talqin qiladi³. Davlatning paydo bo’lishi haqidagi qator nazariyalardan biri ijtimoiy shartnoma nazariyasidir. Unga ko’ra xalq o’z xohish-irodasi bilan yangi jamiyat instituti davlatni tuzadi va hokimiyat beradi. O’z navbatida o’zi tashkil etgan hokimiyat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarga bo’ysunadi va uning bajarilishi uchun

sa’y-harakatlarni amalga oshiradi. Shu nuqtayi nazardan fuqarolik pozitsiyasi jamiyat a’zosi tomonidan tushunib yetilgan va ongli ravishda amalga oshiradigan faoliyat bo’lib, davlatning legitimligi va legalligini ta’minlash kafolatidir.

Onglilik masalasi fuqarolik pozitsiyasini tushunishdagi markaziy nuqtalardan biridir. Ma’lumki, fuqarolik pozitsiyasi shakllangan subyekt jamiyat va davlatning muammolari va yutuqlarini, hal etilishi zarur bo’lgan vazifalarini o’zining hayotiy ta’moyili darajasiga ko’tarish bilan barobardir. Bizning fikrimizcha, maishiy darajadagi axloqiy me’yorlar – atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabat, jumladan axlatni to’g’ri kelgan joyga uloqtirmaslik, navbatga turish madaniyati va hokazolar ana shu onglilikning eng yorqin ifodasidir. Hanuzgacha jamiyatda bu axloqiy qoidalar ijtimoiy madaniyatning tarkibiy qismiga aylanib ulgurmagani. Aksariyat hollarda axloq doirasida tartibga solinishi zarur bo’lgan masalalar qonun yoki zamonaviy texnologiyalar bilan tartibga solinayotgani onglilik masalasi ochiq turganining yaqqol misolidir. O’zbekistonda o’rnatilgan son-sanoqsiz radarlar, banklardagi elektron navbat qurilmalari va kameralar orqali axlat tashlaganlik uchun jarima solish tizimi ham ongli ravishda ijtimoiy-axloqiy me’yorlarni hurmat qilishi ko’nikmasi shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Bizning fikrimizcha, fuqarolik pozitsiyasi ikki muhim kategoriya – fuqarolik va pozitsiyaga tayanadi. Shaxsga tashqi ta’sirlar, ta’lim-tarbiya jarayonida vujudga keladigan kognitiv, ma’naviy va odatiy xulq-atvor qoidalari yig’indisi orqali namoyon bo’ladigan faoliyat sifatida baholash mumkin. Fuqarolik masalasi milliy adabiyotlar va ijobiy ma’nodagi ommaviy madaniyatda fuqarolik tushunchasi keng o’rganilmagan va tarqalmagan. Misol uchun, “O’zbekiston Respublikasi fuqarosi” yoki “O’zbekistonlik” atamalarini oddiy odamlar har doim ham ishlatavermaydi. Bu milliy darajada fuqarolik identifikatsiyasi hali oxiriga yetmaganini anglatadi. Bunga to’siq bo’layotgan asosiy omil – mahalliychilik, o’zbek tili va madaniyatiga hurmatning shakllanmagani hamda kosmopolitizm

¹ <https://www.president.uz/uz/1876> - O’zbekiston yoshlariga bayram tabrigi

² Tetior Aleksandr Nikanorovich (2017). Oligarxiya i plutokratiya - vyrojdenie demokratii. Yevraziyskiy Soyuz Uchenых, (1-2 (34)), 30-34.

³ Mamedov, M.N. Uvajenie grahdanina i yego prav v politiko-pravovыx predstavleniyax mysliteley antichnosti / M.N. Mamedov // Istoriya gosudarstva i prava.- 2011. - № 24. – S. 5-8.

kabi muammolardir. Mahalliychilik – davlat boshqaruvi va biznes sohasida tug‘ilgan joyiga qarab maxsus imtiyozlar yaratishda namoyon bo‘ladi. Bunday salbiy illat haqida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: “Muayyan hududiy farqlarni mutlaq hodisa darajasiga ko‘tarish eng xavfli xatodir. Har bir shaxsning milliy o‘zligini mintaqaviy asosda belgilab bermasligi kerak. Inson o‘zini eng avvalo O‘zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina xorazmlik, samarqandlik yoki Farg‘ona vodiysining aholisi deb his qilishi lozim”⁴. Mahalliychilikning eng salbiy oqibati shundan iboratki, jamiyat a‘zosi o‘zining ijobiy xislatlari bilan emas, qandaydir ilmiy asosga ega bo‘lmagan tasodifiy xususiyatga ega bo‘lgan jihatlari bilan ma‘lum bir maqomga ega bo‘ladi. Tasodifiylik bu o‘rinda aynan uning qaysidir viloyatda tug‘ilganidir. Mamlakat miqyosidagi mahalliychilik esa, fuqarolik pozitsiyasi shakllanishiga to‘sqinlik qiladigan asosiy omil bo‘lib qolaveradi.

MUHOKAMA. Fuqarolik pozitsiyasining mohiyatini tushunib yetishda barcha fuqarolarni birlashtiradigan milliy til masalasi markaziy o‘ringa chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbek tili bayrami munosabati bilan yo‘llagan bayram tabrigida shunday degan edi: “Hammamizga ayonki, ko‘p millatli xalqimizni yuksak ma‘rifatli jamiyat barpo etishdek ezgu maqsad yo‘lida jiplashtirish, yurtdoshlarimiz qalbiga yagona Vatan, umumiy farovon kelajak tuyg‘usini singdirishda o‘zbek tili birlashtiruvchi ahamiyatga egadir”⁵ [5]. Ma‘lumotlarda qayd etilishicha, hozirgi kunda Yer yuzida 50 millionga yaqin odamlar o‘zbek tilida so‘zlashadi. Bu ko‘rsatkichning o‘ziyoq o‘zbek tilining dunyodagi keng tarqalgan tillar qatoriga qo‘shishga asos bo‘ladi. O‘zbekistonda esa o‘zbek tili xalqimizni birlashtirib turadigan asosiy ma‘naviy boylik bo‘lib turibdi. Globallashuv natijasi o‘zbek tilini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Bugungi ayrim yoshlar ingliz, rus va boshqa tillarni puxta o‘zlashtirgan holda

o‘zbek tilini bilmasligi hollari ham uchrab turibdi. Bunday yoshlarning milliy ma‘naviyatimizga, madaniyatimizga va qolaversa, davlatchiligimizga ham munosabati tilga bo‘lgan munosabati kabidir. Bu hol esa, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga to‘siq bo‘ladigan omillar sirasiga kiradi. Bir necha bor tahrir qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi qonunida “O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilab beriladi”⁶ [6] deya qayd etilgan. Lekin, til qonunchiligi bo‘yicha qator tashabbuslar ilgari surilgan bo‘lib, ularning ayrimlari qonunga kirmay qolgan. Umuman olib qaraganda, bu o‘rinda gap davlat boshqaruvi idoralarida o‘zbek tilida ish yuritish haqida ketmoqda va hanuzga qadar rus tilining ahamiyati ayrim o‘rinlarda saqlanib qolgan. Bu boradagi yana bir muammo esa yangi kirib kelgan so‘zlarning o‘zbekcha muqobilini iste‘molga kiritish masalasidir. Chunki, hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarning chet tillari xususan ingliz tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi mavjud. Shu sababli, ko‘p ishlatiladigan inglizcha so‘zlarni tarjimasiz qo‘llash holatlari kuchaygan. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori Z.Xolmanova hamda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi mutaxassisi S.Abdullayevalarning “Yangi O‘zbekiston” gazetasida e‘lon qilgan “Ona tilimiz – tengsiz boyligimiz, nomus-orimizdir” nomli maqolada “Nomlar, reklama va e‘lonlar matnining “Atamalar komissiyasi” nazoratidan o‘tkazilishini yo‘lga qo‘yish kerakligi aytilgan. Shu o‘rinda ayrim yurtdoshlarimizning “O‘zbek tilining ko‘p so‘zlari arabcha va forsha-tojikcha”, “Kompyuter yoki mashinasozlik terminlarini qanday qilib o‘zbekchalashtirish mumkin?” degan e‘tirozنامo munosabatlariga keladigan bo‘lsak, avvalo, gap terminlar ustida borayotgani yo‘q. O‘zbek tilidagi hamma chet so‘zlarni o‘zbekchalashtirish mumkin emas. Bu yerda “me‘yor”, “imkon qadar” degan

⁴ Karimov. I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, O‘zbekiston: 1997. – B. 103.

⁵ <https://www.president.uz/uz/lists/view/5627> - O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 257-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun

hujjatlari to‘plami, 2004 y., 51-son, 514-modda; 2010 y., 37-son, 313-modda; 2011 y., 41-son, 449-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020 y., 03/20/653/1592-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.

tushunchalarga urg'u beriladi. Qolaversa, o'zbek tilida arabcha, forsha so'zlar ko'p bo'lsa ham, qo'llanish miqdori jihatidan turkiy otlar, fe'llar faoldir. Turkiy so'zlarning nom sifatidagi doirasini kengaytirish, o'zbekcha terminlar miqdorini oshirish Prezident farmonida belgilangan vazifalardan biridir. Milliy tilning asosiy lug'at boyligini o'z qatlam so'zlari tashkil qilishi kerak. Bu masalani ongli ravishda yondashib hal qilish jahon tajribasida ko'p kuzatiladi, xususan, Koreya til siyosatida uchraydi"⁷. Qayd etib o'tilganidek, hozirgi kunda atamalar komissiyasining faoliyatini kuchaytirish orqali jamoatchilikda yangi atamalarning muqobilini iste'molga kiritish zarur. Bu esa o'zbek tilini milliy darajada ahamiyatini oshirishga xizmat qiladigan muhim yo'nalishlardan biridir. Albatta, dunyoning ayrim davlatlarida rasmiy davlat tili mavjud bo'lmasa-da fuqarolik pozitsiyasi shakllangan holatlar ham yo'q emas. Misol uchun, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi davlatlarda ingliz tilida gaplashilsa, Yaqin Sharq davlatlarida aksariyat aholi arab tilida so'zlashadi. Lekin, ularning har birida ham milliy identifikatsiya jarayoni ancha kuchli va fuqarolik pozitsiyasining shakllanish jarayoni ham ilgari ketgan. O'zbekiston sharoitida esa o'zbek tili milliy birlikni ta'minlovchi muhim omil va shu orqali fuqarolarning siyosiy mas'uliyatini shakllantirish imkoniyatini beradigan omillardan biridir.

NATIJALAR. O'zbekistonda davlat tili o'zbek tili ekanligi Konstitutsiya va qonunlar doirasida belgilab qo'yilsa-da, o'zbek tilining keng qo'llanilishi bo'yicha juda ko'p bahs va munozaralar mavjud. Dunyoning juda ko'p davlatlarida globalizatsiya ta'sirida milliy tillar iste'moli cheklanib bormoqda va bu tabiiy jarayondek ko'rinadi. Lekin, jahon tillarining milliy tillar iste'molini kamaytirishdagi o'rnini sun'iy yo'l bilan to'sib bo'lmasligi bo'yicha ham qator tajribalar mavjud. Jumladan, Afrika davlatlarida, xususan Janubiy Afrika Respublikasida o'nlab davlat tillari bilan bir qatorda ingliz tili muloqot tili sifatida o'z ahamiyatini saqlab turibdi⁸ [8]. Bu esa o'zbek tilini rivojlantirish hisobidan boshqa tillarni cheklashga bo'lgan urinishlarning samarasiz ekani hamda bu jarayon

⁷ <https://yuz.uz/news/ona-tilimiz-tengsiz-boyligimiz-nomus-orimizdir--> - Ona tilimiz tengsiz boyligimiz, nomus-orimizdir

turli fanlarning rivojlanishiga to'siq bo'lishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Albatta, til milliy birlikning asosiy elementi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillaridan biri sifatida o'z ahamiyatini butkul yo'qotmaydi. Bu o'rinda globalizatsiya natijasida tillarning ahamiyati o'zgarishi fuqarolik pozitsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi haqida gap ketmoqda. Zero, tillar asta-sekin iste'mol doirasini kattalashtirib yoki kichraytirib borishi mumkin. Lekin, dunyodagi hech bir davlatning manfaatlari va uning uchun kurashi hech qachon to'xtab qolmaydi. Ana shu manfaatni milliy darajada qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan "yoqilg'i", energiya – fuqarolik pozitsiyasidir.

XULOSA. Fuqarolik pozitsiyasining shakllanishida milliy identifikatsiya jarayoni muhim rol o'ynaydi. Y.Bromleyning fikricha "etnos (etnik birlik) – bu, muayyan hudud, til, kelib chiqish, madaniyat, ruhiyat umumiylik, o'z-o'zini etnik anglash va boshqa kishilar uyushmasidan o'zini farqlagan, etnik nomlanishi (etnonim)ga hamda o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan kishilarning tarixan tarkib topgan uyushmasidir"⁹. Bu o'rinda millatlarning vujudga kelishida asosiy omil hudud, til va madaniyat ustuvor ekanligiga urg'u beriladi. Millatlarning nomlanishi boshqalardan ajralib turishi uchun o'ylab topilgan va "o'zimiznikilar" va "boshqalar" kategoriyalarini keltirib chiqarishga asos bo'lgan. Umuman olib qaraganda milliy identifikatsiya jarayonining mohiyati ham qisman mana shunday paradigma atrofida birlashadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.president.uz/uz/1876> - O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi
2. Тетиор Александр Никанорович (2017). Олигархия и плутократия - возникновение демократии. Евразийский Союз ученых, (1-2 (34)), 30-34.
3. Мамедов, М.Н. Увлечение гражданина и его правда в политико-правовых представлениях мыслителей античности / М.Н. Мамедов // История государства и права.- 2011. - № 24. – S. 5-8.

⁸ Smokotin V.M., Petrova G.I., & Gural S.K. (2018). Sustaining linguistic and cultural balance in multilingual South Africa. Language and Culture, (12), 34-43.

⁹ Bromley Yu, V. Ocherki teorii etnoca. – M., 1983. – C.58.

4. Karimov.I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, O‘zbekiston: 1997. – B. 103.
5. <https://www.president.uz/uz/lists/view/5627> - O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 257-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 51-son, 514-modda; 2010 y., 37-son, 313-modda; 2011 y., 41-son, 449-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020 y., 03/20/653/1592-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son
7. <https://yuz.uz/news/ona-tilimiz-tengsiz-boyligimiz-nomus-orimizdir--> - Ona tilimiz tengsiz boyligimiz, nomus-orimizdir
8. Smokotin V.M., Petrova G.I., & Gural S.K. (2018). Sustaining linguistic and cultural balance in multilingual South Africa. *Language and Culture*, (12), 34-43.
9. Bromley Y.V. Ocherki teorii etnoca. – M., 1983. – C.58.
10. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolik jamiyati g‘oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o‘rni. //Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 247-250.
11. Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. //Tamaddun nuri jurnali, 5(44), 95-96.
12. Курбанбаева, М. (2023). Влияние современного жаргонизма на изучение русского литературного языка иноязычной молодежью. //Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 52-55.
13. Kurbanbayeva, M. (2023). Abu Rayhon Beruniy hayotiga doir ba’zi mulohazalar. //Tamaddun nuri jurnali, 9(48), 64-66.

